

TA'LIMDA BAHOLASH MEZONLARI

Abdug'aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, talaba.

E.mail: abduganiyevamushtariy23@gmail.com

Kurbanov Elbek Elmurodovich

Andijon davlat chet tillar instituti, f.f.f.d., (Phd) dotsent

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarini baholashda pisixalogik yondashuv, o'qituvchilarga har bir talabaning bilim va saviyasini, ko'nikma va tushunchasini qo'llay olish darajasini aniqlash, talabalar hamda ota-onalar va boshqa o'qituvchilar bilan bo'lishish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plashning dalillarga asoslanish. O'z vaqtida konstruktiv fikr va mulohazalarni taqdim etish, talabalarning o'qishi va o'sishiga e'tibor qaratish orqali o'rghanish va samaradorlikni oshirish uchun muhim qo'llanmalar, o'qituvchilarning o'z o'quv jarayonlarini nazorat qilish hamda rejalashtirish, o'quvchilar tengdoshlarini baholashi, Formativ baholash, Summativ baholash xamda o'z-o'zini baholash xaqida so'z boradi.

Maqolaning maqsadi ta'lim sifatini baholash uchun turli yondashuvlar va usullarni o'rghanishdir. Maqolada ta'lim tizimida baholashni axamiyatlari, konsepsiysi va maqsad vazifalari tahlil etilgan. Buning uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanilgan: o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash refleksiya. Tadqiqot natijalariga ko'ra talabalar darslarga qiziqishi ortishi, shaxsiy natijalar shakllantirilishi, fikrlarlash doirasi kengayishi va mustaqil ravishda ma'lumot olishga intilishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, talaba, qonun, ta'lim beruvchi, baholash, islohot, nazorat, metodika, dars, o'quv reja, summativ, formativ, baholash mezonlari.

Ta'limning asosiy vazifasi talabada jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni

shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari “XXI asr” ko‘nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lмаган соҳаларда ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Yuqoridagi talablar ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksari-yat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.[2-18] Bu o‘z-o‘zidan talabalarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va ta’lim beruvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta’limning sifatini va samaradorligini oshirishda xorijiy ilg‘or tajribalarni tatbiq etish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta’lim sohasi, xususan oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, talabalarни о‘qitishni zamonaviy bosqichga olib chiqish, qolaversa, innovatsion ta’limni shakllantirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Bu borada bir qator farmon va qarorlar ham qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli Qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagи “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-

sonli, 2021-yil 19-maydagи “Xorjiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qaroriga muvofiq, 2018-yil 26-sentyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilib qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi nizom shular jumlasidandir [1-36].

Baholash bu talabaning hozirgi yutuqlarini (muvaqqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaqqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va bu orqali o‘quv natijalarini amaldagi o‘quv dasturlari tomonidan belgilangan normativlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni talabalar bilan birgalikda amalga oshiriladi va bu orqali talabaning pisixologiyasi , dunyo qarashi hamda talabalarning qadr-qimmati shakllantiriladi.

Baholash mezonlari -baholash yoki ta’lim olish maqsadi bilan bog‘liq bo‘lgan aniq samaradorlik natijalarini, shu jumladan natijalarning diapazoni va chuqurligini tavsiflaydi. Baholash mezonlari rubrikalar, misollar, nazorat varaqalari va boshqalar kabi turli xil vositalar orqali yetkazilishi mumkin.

Baholash - olingan bilimlar bo‘yicha ma’lumotlarni tizimli yig‘ish, tahlil qilish va ulardan foydalanish. Baho talabalarning har biri nimalarni bilishi, nimalarni tushunishi va nimalarga qodir ekanligi to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Baholash samarali ta’lim olish va o‘qitishga xizmat qiladi, ularning natjalari jarayonning barcha ishtirokchilari (talabalar, ota-onalar, o‘qituvchilar) uchun qiymatli bo‘lib, o‘quv rejalarini va o‘qitish metodikasini yaxshilash maqsadida foydalanilanadi.[3-21]

Darsga kirayotgan o‘qituvchi dastavval talabalarning bilim darajasini qay darajada ekanini bilish maqsadida DBB usulini qo‘llaydi ya’ni Dastlabki Bilimlarini Baholash usuli orqali yondoshadi.

Bu nima degani : Dastlabki bilimlarni baholash bu o‘qituvchilar talabalarning avvalgi bilimlarini aniqlash uchun foydalanadigan o‘quv strategiyasi. Ushbu ma’lumotlar o‘qituvchilarning talabalarga ularning darajasiga ko‘ra ko‘rsatma berishini ta’minlash va ko‘rsatmalarini talabga ko‘ra farqlash uchun ishlatiladi.

Bugungi isloh qilinayotgan zamonaviy ta’lim tizimi asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan bo‘lib ta’lim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholash usulidir.

Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to‘plami “Formativ baholash” ya’ni “shakllantiruvchi” deb nomlanadi. Bu o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan o‘quv jarayonining bir qismi bo‘lib, o‘quv va o‘qitish usullarini o‘zgartirish orqali talabaning tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan.

Formativ baholash deganda talabalar tushunadigan narsalarni muntazam ravishda kuzatib borish hamda ularning mustahkamlash talab qiladigan sohalarni aniqlash demakdir. Ta’lim beruvchilarga talabalarning qanday bilim olayotganliklari haqida umumiylar ma’lumot olishda yordam beradi. Bundan tashqari, bu talabalarga bilim olish uchun, ularni baholashda yanada osishlari uchun o‘z kuchlari va kamchiliklarini aniqlashga yordam beradi.

Summativ baholash – ma’lum muddat davomida yoki ma’lum bob yuzasidan berilgan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib ya’ni, bunda ta’lim beruvchi muayyan miqdorda mavzularni qamrab olgan bobni talabaga yetkazib bergach, talabalarning ushbu bob yuzasidan olgan bilimlari aniqlashtirishdir. Eski baholash tizimida bu Nazorat ishi ko‘rinishida mavjud bo‘lgan.

Summativ baholash – talabalarning bilim, konikmalarni egallashi va akademik yutuqlarini rasmiy baholash uchun ishlatiladi. Bu baholash turi olingan bilimlarnini baholashni bildiradi. Ya’ni talabalarga o‘z bilimlari haqidagi fikr-mulohazalar yozma ravishda beriladi.

Talabalarning o'sib borayotgan pisixalogiyasida o'z o'zini baholashni rivojlantirish ta'lim beruvchining yuksak mahoratiga bog'liq.

O'z-o'zini baholash-bu talaba tomonidan o'zini sub'ektiv baholashdir . O'z harakatlarini, fazilatlarini, his-tuyg'ularini baholay olish xususiyati demakdir. Ya'ni o'z qobiliyatini va o'quv yutuqlarini tahlil qilish jarayonini anglatadi. Erta yoshdan boshlab o'quvchilarga o'z-o'zini baholash o'rgatiladi va ular o'z o'quv jarayonidagi bilim natijalaridan yanada xabardor bo'lib boradilar. Bu ularga o'z bilimlariga egalik qilishga yordam beradi.

Tengdoshlarni baholash- bu talabalar tengdoshlarining o'rganish jarayonlarini baholash jarayonidir. Bu talabalarga mo'ljallangan o'quv maqsadlari va baholash jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu hamkorlikni rivojlantiradi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Dars mobaynida baholashning bir yana usuli bor bu - real vaziyatlar bo'yicha baholash.

Real vaziyatlar bo'yicha baholash- o'quvchilarga hayotda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llash imkonini beradigan muhim baho. Real vaziyatlar bo'yicha baholash jarayonini ishlab chiqish murakkab, shu munosabat bilan chuqur ishlab chiqish va ko'nikmalarni talab etadi.

Yurtimizdagи ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan turli islohotlar talabalar bilimini nazorat qilish semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan so'ng talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida olib borilgan izchil islohotlardan baholash tizimida holisona yondashish lozimigini ko'rsatadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Узбекистан республикаси президенти Шавкат мирзиёевнинг Олий Мажлис хамда Узбекистан халкига мурожаатномаси. 20.12.2022.

<https://president.uz/uz/lists/view/5774>

2. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishning kontseptual asoslari.

10./SO/VOL_2023_ISSUE_6_5

3. the uzbek international school pdf: baholash mezonlar.

4.<https://piima.uz/uz/news/maktab-baholash-tizimida-inson-omili-minimallashtiriladi>.

5 <http://locutus.ucr.edu>

6 <http://www.ziyo-net.uz>

7 <http://www.kutubxona.uz>